

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KOGNITIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA "ILK QADAM" DAVLAT O'QUV DASTURINING TUTGAN O'RNI

Bazarbayeva Ayjamal Kdirbaevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti asistent oqituvchisi

E-mail: bazarbaevaayjamal777@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli o'rganiladi. Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda kognitiv qobiliyatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada "Ilk qadam" dasturining asosiy tamoyillari, uning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni, shuningdek, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, mustaqil ta'lim olish, muammolarni hal qilish va ijtimoiy moslashuv kabi qobiliyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari "Ilk qadam" dasturining kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi hamda uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kognitiv qobiliyatlar, Ilk qadam dasturi, pedagogik metodlar, mantiqiy fikrlash, o'quv jarayoni, innovatsion ta'lim, ijtimoiy moslashuv, tarbiyaviy tamoyillar, ta'lim sifati.

Maktabgacha ta'lim jadal rivojlanayotgan ta'lim sohasi bo'lib, u butun dunyo va mamlakatimizdagi ta'lim sohasi mutaxassisleri va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Davlat o'quv dasturi – bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat maktabgacha ta'limning muqobil, parsial, moslashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish uchun ham asosdir.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv dasturi milliy pedagogika va psixologiyaning quyidagi tamoyillariga asoslanadi:

- bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyat va salohiyatlarini hisobga olish;
- ta'lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligi;
- bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash;
- o'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish;
- bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish;
- bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash;
- MTTning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;

- milliy madaniy anʼanalarni qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Shuningdek, mazkur dasturda bola rivojlanishining quyidagi sohalarini belgilab berilgan: “Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi”; “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish”; “Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari”; “Taʼlim jarayonining rivojlanishi”; “Ijodiy rivojlanish”.

“Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi” sohasi tadqiqot predmeti bilan bogʻliqlikda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi: oʻz imkoniyatlari va yoshi bilan bogʻliq jismoniy rivojlanish meʼyorlariga mos ravishda jismoniy faollik koʻrsatish; turli harakatchanlik faolligini uygʻun ravishda va maqsadli bajarishni taʼlim; turli hayotiy va oʻquv vaziyatlarida mayda motorika koʻnikmalaridan foydalana olish; oʻz harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqara olish; xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qilish va boshqalar.

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi ijtimoiy tavsifdagi dastlabki tasavvurlarni oʻzlashtirish va quyidagi vazifalarni hal etish orqali bolalarni ijtimoiy munosabatlar tizimiga jalb etishni koʻzda tutadi:

- bolalarning oʻyin faoliyatini rivojlantirish;
- tengdoshlari va kattalar bilan oʻzaro munosabatda elementar umumqabul qilingan meʼyor va qoidalarga rioya qilish;
- gender, oilaviy, fuqarolik kompetensiyalarini, vatanparvarlik hissinini shakllantirish.

“Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari” sohasi quyidagi vazifalarni hal etish orqali atrofdagi kishilar bilan oʻzaro birgalikdagi faoliyatning konstruktiv usul va vositalarini oʻzlashtirish maqsadini belgilab beradi:

- kattalar va bolalar bilan erkin muloqotni rivojlantirish;
- ogʻzaki nutqning (leksik jihati, nutqning grammatik qurilishi, talaffuz; dialogik va monologik nutq shakllarining aloqadorligi) barcha komponentlarini rivojlantirish;
- tarbiyalanuvchilarning nutq meʼyorlarini amaliy oʻzlashtirishi.

“Taʼlim jarayonining rivojlanishi” sohasi quyidagi vazifalarni hal etish orqali bolalarda taʼlimga qobiliyatni rivojlantirish maqsadini amalga oshiradi:

- sensor rivojlanish;
- taʼlim-izlanishli, produktiv (konstruktiv) faoliyatni rivojlantirish;
- elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish;
- olamning yaxlit manzarasini shakllantirish, bolalarning dunyoqarashini kengaytirish.

“Ijodkorlik” sohasidagi oʻquv-tarbiyaviy faoliyat tadqiqot muammosi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, quyidagi badiiy-estetik layoqatni tarkib toptirishga imkon beradi:

- sanʼat va madaniyatga qobiliyatni namoyon qila olish;
- milliy anʼanalarni qadrlay olish va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etish;

- sanʼatning muayyan turini afzal koʻrishini mustaqil ravishda ifodalay olish;
- olingan bilim va koʻnikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda oʻz ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalana olish;

- insonning dunyoni oʻzgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushuna olish.

“Ilk qadam” davlat oʻquv dasturini oʻzlashtirishdan kutiladigan natijalar – bolada quyidagi integrativ sifatlarni shakllantirishni nazarda tutadi:

- jismoniy rivojlanish, madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarga ega bo‘lish;
- qiziquvchanlik, faollik;
- emotsional sezgirlik;
- kattalar va tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat usullari va muloqot vositalarini o‘zlashtirish;
- o‘z xulq-atvorini boshqarish, dastlabki qadriyatga yo‘naltirilgan tasavvurlar asosida o‘z harakatlarini rejalashtirish, elementar umumqabul qilingan me‘yor va qoidalarga rioya qilish;
- yoshiga mos intellektual va shaxsiy vazifalar (muammolar)ni hal etishga qobiliyatlilik.

Xulosa kilib aytganda bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda "ILK QADAM" davlat o‘quv dasturi bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari asosida hamda MTT davlat o‘quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta‘lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish, bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bazarbaeva Ayjamal Kdırbaevna. Bolajaq tárbıyashılardıń kognitiv qábiletlerin rawajlandırıw metodikalıq usılları
2. Bazarbaeva A. Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodlarining komponentlari// Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti ILMIY AXBOROTLARI 2023/ 7 – SON 22 b
3. Bazarbaeva A. Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi// Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ilim hám Jamiyet Ilmiy-uslubiy jurnal №3.2023 8-10 b
4. В.А. Сластинин, И.Ф.Исаев, Е.Н.Шиянов «Педагогика» учебник, Москва «Академия» 2004.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Ilk qadam” maktabgacha ta‘lim tashkilotining o‘quv dasturi